



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№4/2

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

Ўзбекистон худудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Умар Худайбердиев Камбағаллик даражаси ва уни қисқартириш йўллари	66
Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова Аҳолининг ўсиши, камбағаллик даражаси ва аҳоли камбағал қатламининг ўзгариш тенденциялари	69
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirish yondashuvlari	74
Навруз Абдуллаевич Кудратов Пути эффективного развития услуг электронной коммерции (на примере Самаркандской области)	77
Dilrabo Shirinboyevna Mardonova Samarqand viloyatida mehmonxona xizmatlari integral samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisoblash	80
Farhod Mahmudovich Tirkashyev Xizmatlar ko‘rsatish sohasida intellektual mulk obyektlarini boshqarish xususiyatlari	86
Lazizjon Sharifovich Kuldoshev Xizmat ko‘rsatish sohasida raqobatbardoshlik salohiyatini baholashga ilmiy yondashuvlar	91
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Аҳмаджон Таниев Туризмнинг атроф-муҳитга таъсири ва барқарор ривожланиш стратегиялари	97
Umida Ziyadullayevna Raximova Turizm Infratuzilmasining hozirgi holati	105
Gulmira Rabbonovna Tursunova Turistik mahsulot iste‘molchisini tasniflash	110
Bekzod Sherzodovich Sharipov Inklyuziv turizm destinatsiyalarini shakllantirishning konseptual, nazariy-metodologik asoslari	116
Ulug‘bek Egamberdiyevich Boynazarov Oilaviy mehmon uylari uchun mahalliy va xalqaro me‘yorlar xususiyatlari	121
Dilyor Zafarovich Hakimov O‘zbekistonda etnografik turizmni rivojlantirish samaradorligini oshirish yo‘llari	124
Зухрали Турсуналиевич Абдулхакимов Туризм индустриясини ривожлантиришда минтақавий назариялар ўрни ва роли	130
Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova Mehmonxona xo‘jaligida yashil texnologiyalarni joriy qilishning innovatsion yechimlari	135
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Азизбек Исомиддин ўғли Асроров Кичик бизнес субъектларини кредитлаш тизимини такомиллаштириш масалалари	139
Pyos Pخomovich Ayubov, Sumbula Kurasheva Iqtisodiy islohotlarning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni	145

Ilyos Pkhomovich Ayubov – SamISI dotsenti, PhD

Sumbula Kurasheva – SamISI 1-bosqich talabasi

IQTISODIY ISLOHOTLARNING TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiy islohotlari tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etilishi, tadbirkorlikni tashkil etishdan tortib uni shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonlarni soddalashtirilganligi, hamda kichik va yangi tadbirkorlarga grantlar faoliyatini rivojlantirishni joriy etilishi haqida so‘z yoritilib borilgan.

Kalit so‘zlar: siyosat, tadbirkor, byurokratik to‘siqlar, moliya, soliq, biznes, kredit, strategiya, innovatsiya, litsenziya, resurs.

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bozorni tartibga solish, resurslarni samarali taqsimlash va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shirishini qo‘llab quvvatlashda davlatning amalga oshiradigan islohotlari harakatlarning asosiy omili hisoblanadi. Ayniqsa, tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosatining ahamiyati beqiyosdir. Tadbirkorlar iqtisodiy tizimning faol qismlaridan biri bo‘lib, yangi ish o‘rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy o‘shirishni rag‘batlantirishda faol ishtirok etadilar. Shuning uchun iqtisodiy islohot tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga, uning o‘shirishini rag‘batlantirishga va mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Tadbirkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy islohotlarning roli keng ko‘lamli bo‘lib, u soliq siyosati, kredit imkoniyatlari, infratuzilma yaratish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va boshqa sohalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada iqtisodiy islohotning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning turli strategiyalari haqida batafsil tahlil qilingan.¹

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bizning maqolamizda raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy sohalarining rivojlanishi imkoniyatlarini o‘rganish masalasi qo‘yilgan. Ushbu maqsadda Samuelson, P.A., Nordhaus, W.D., Mankiw, N.G. kabi olimlarning hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat statistikasi ma‘lumotlari asosidagi tahlillarni o‘rganish ishlari amalga oshirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Olib borilgan izlanishlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiy islohotlarlar asosida tadqiqotlar o‘tkazish va ular asosida tajriba qilishga tayanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy sohalarining rivojlanishi imkoniyatlarini o‘rganish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqot kuzatish, qiyoslash, statistika va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy raqamli texnologiyalarning joriy etilishi turizm sohasining rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqadi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi mamlakatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash, bozorni samarali boshqarish va iqtisodiy o‘shirishni rag‘batlantirishdir. Biroq, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishda bir qator muammolar yuzaga keladi. Har qanday iqtisodiy tizimda davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosatning muvaffaqiyatga erishishi ko‘plab ichki va tashqi omillarga bog‘liq. Tadbirlar va tashabbuslar qanchalik samarali bo‘lishiga qarab, tadbirkorlik muhiti rivojlanishi mumkin, lekin ba‘zi hollarda bu jarayonni to‘sqinliklar va qiyinchiliklar to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Misol uchun; qonunchilik va byurokratik to‘siqlar, moliyaviy va kredit resurslariga cheklangan kirish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashda qiyinchiliklar, mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning ta‘siri.

Qonunchilik va byurokratik to‘siqlar bu ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlik muhitini yaratishda qonunchilik va byurokratik to‘siqlar katta muammo bo‘lib qoladi. Ko‘pincha, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziyalar olish, soliq to‘lovlari va boshqa idoraviy jarayonlar uchun juda murakkab va vaqt talab qiluvchi tartiblar mavjuddir.

Moliyaviy kredit resurslariga cheklanganligi bu yangi tadbirkorlar uchun eng katta muam-molardan biri - bu moliyaviy resurslar cheklanganligidir. Aksariyat kichik va o‘rta bizneslar,

¹ Tadbirkor.uz (2024). “Iqtisodiy islohot va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash: O‘zbekiston tajribasi.” www.tadbirkor.uz (<http://www.tadbirkor.uz/>)

ayniqsa yangi boshlovchilar, bank kreditlarini olishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Kreditlarning yuqori foiz stavkalari va kafolat talablari, shuningdek, moliyaviy tarmoqdagi raqobatning yetarlicha rivojlanmaganligi, yangi bizneslar uchun qiyinchiliklar yaratadi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy faollikni pasaytiradi va yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlarini cheklaydi.

Innovatsiyalarni qo‘llab quvvatlash qiyinchiliklari bu innovatsiyalar iqtisodiy o‘shish va raqobatbardoshlikning asosiy manbai hisoblanadi. Ammo, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish uchun zarur infratuzilma va moliyaviy resurslar yetishmaydi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan yoki yetarli darajada rag‘batlantirilmagan startaplar va texnologik inkubatorlar mavjud emas. Bu holat, ilg‘or texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni pasaytiradi va davlat iqtisodiyoti global raqobatda orqada qolishiga olib keladi.

O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan siyosat va chora-tadbirlar kichik va o‘rta biznes (KO‘B)ning o‘shishiga yordam bermoqda. Kichik va o‘rta biznesning o‘shishi 2019 yil oxiriga kelib, O‘zbekistonda 170,000 dan ortiq kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyat yuritayotgan edi. 2020 yilga kelib bu ko‘rsatkich 190,000ga yetdi. 2021 yilga kelib 210,000 dan oshdi. 2022 yil yakunlariga ko‘ra esa bu raqam 230,000 ga yetdi. 2023 yilda esa 250,000 ga yaqin kichik va o‘rta biznes subyektlari ro‘yxatdan o‘tishi kuzatilgan. Natija shuni ko‘rsatadiki 2019-2023 yillar davomida KO‘B subyektlarining soni sezilarli darajada oshgan¹.

2023 yil boshida yangi bizneslarni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni soddalashtirildi. Endi yangi tadbirkorlar bizneslarini 1-2 kun ichida ro‘yxatdan o‘tkazishlari mumkin. 2023 yilda 50,000 dan ortiq yangi biznes ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Shuningdek bu ko‘rsatkich borgan sari ko‘tarilmoqda.

Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonini soddalashtirish Davlat yangi kompaniyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun qulay, tez va oddiy tizimni joriy etishi kerak. Elektron hukumat tizimlarini joriy etish va biznesni ro‘yxatga olish jarayonini raqamlashtirish byurokratik to‘siqlarni kamaytirishga yordam beradi. Qonunlarni va tartib-qoidalarni takomillashtirish. Soliq qonunlari, mehnat qonunchiligi va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash sohalarida yangilanishlar kiritish, tadbirkorlikni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun shaffof va samarali qonunlar ishlab chiqish kerak. Byurokratik to‘siqlarni kamaytirish ya‘ni litsenziyalar va ruxsatnomalarni olishni osonlashtirish kerak. Misol tariqasida kredit tizimini takomillashtirish kerak. Banklar va moliyaviy institutlar tomonidan kichik va o‘rta bizneslarga qulay kreditlar taqdim etilishini ta‘minlash uchun kredit foizlarini kamaytirish va xavfni kamaytirish bo‘yicha yangi mexanizmlar yaratish zarur. Kichik biznes uchun subsidiyalar va grantlar ajratish zarur. Kichik va yangi boshlovchi tadbirkorlarga grantlar va subsidiyalar berish, ular uchun arzon kreditlar taqdim etish, kapital yetishmovchiligi muammosini hal qilishda muhim yordam beradi².

Kichik va yangi tadbirkorlarga grantlar faoliyatni rivojlantirish uchun texnologik parklar va biznes inkubatorlarini tashkil etish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus infratuzilma yaratish. Bularning barchasi texnologik innovatsiyalarni yangi bozorlarga olib chiqishga yordam beradi. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish uchun ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun o‘quv dasturlarini modernizatsiyalash, raqamli iqtisodiyotga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimini rivojlantirish zarur.

Ijtimoiy va siyosiy barqarorlik iqtisodiy o‘shishning asosi bo‘lib, davlat siyosatini izchil va aniq olib borish, korrupsiyani kamaytirish va qonun ustuvorligini ta‘minlash zarur. Ijtimoiy va siyosiy muhitning barqarorligi tadbirkorlar uchun ishonchni oshiradi va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Mamlakatda ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash, ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash orqali mehnat resurslari va tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqarolarni iqtisodiy noxush vaziyatlardan himoya qilish va ijtimoiy barqarorlikni saqlash, Demokratik jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash, siyosiy erkinlik va huquqlarni ta‘minlash, fuqaro jamiyati va tadbirkorlar o‘rtasida ishonchni oshirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali muloqotni ta‘minlashdir.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Investitsiyalar va Tashqi Savdo Vazirligi (www.mf.uz, www.mft.uz.)

² O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi (2023). Milliy iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar. www.stat.uz (<http://www.stat.uz/>)

Soliq siyosatini alohida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashdagi roli tizimni soddalashtirish va tadbirkorlar uchun imtiyozlar yaratish borasida ko‘plab islohotlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2022-2023 yillarda tadbirkorlik faoliyatini boshlovchilar uchun soliq yuklari kamaytirilgan, yangi soliq imtiyozlari kiritilgan, bu esa biznesni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishga yordam bermoqda.

Xulosa va takliflar. Iqtisodiy islohotlar tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va innovatsiyalarni joriy etishda asosiy rol o‘ynaydi, shu bilan birga, iqtisodiy islohot bu jarayonlarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Iqtisodiy islohot tadbirkorlikni rivojlantirishda duch kelinadigan asosiy muammolar, jumladan, qonunchilikdagi murakkabliklar, byurokratik to‘siqlar, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, soliq siyosatidagi muammolar va siyosiy barqarorlikning ta‘siri batafsil tahlil qilindi. Bundan kelib chiqqan holda, iqtisodiy islohot va tadbirkorlikni rivojlantirishda to‘liq muvaffaqiyatga erishish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, qonun ustuvorligi va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan strategiyalarni amalga oshirish zarur. Yangi iqtisodiy islohot va samarali tadbirkorlik muhitini yaratish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanish uchun mustahkam asos bo‘ladi.

Mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning ta‘siri ijtimoiy va siyosiy barqarorlik iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Siyosiy beqarorlik, korrupsiya, qonunchilikdagi noaniqliklar va ijtimoiy notinchliklar tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Investitsiyalarni jalb qilish, yangi kompaniyalarni tashkil etish va mavjud bizneslarni kengaytirish uchun barqaror siyosiy muhit zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) Samuelson, P.A., Nordhaus, W.D. (2010). Economics. 19th ed. McGraw-Hill Education.
- 2) Mankiw, N.G. (2018). Principles of Economics. 8th ed. Cengage Learning.
- 3) World Bank (2020). Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. The World Bank Group.
- 4) World Bank. (2024). Uzbekistan: Economic Overview. www.worldbank.org/uzbekistan (<http://www.worldbank.org/uzbekistan>)
- 6) Tadbirkor.uz (2024). “Iqtisodiy islohot va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash: O‘zbekiston tajribasi.” www.tadbirkor.uz (<http://www.tadbirkor.uz/>)
- 7) Acemoglu, D., Robinson, J.A. (2012). “Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty.” Economic Policy Review, 21(4), pp. 10-25.
- 8) O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi (2023). Milliy iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar. www.stat.uz (<http://www.stat.uz/>)
- 9) O‘zbekiston Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish qo‘mitasi (www.kbk.gov.uz)
- 10) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Investitsiyalar va Tashqi Savdo Vazirligi (www.mf.uz, www.mft.uz.)

<p>И.Аюбов , С.Курашева Перспективы экономической политики в развитии предпринимательства Аннотация. В данной статье речь идет о том, что экономические реформы нашей страны приобретают важное значение для развития предпринимательства, упрощают процессы от организации предпринимательства до его формирования, а также внедряют гранты малым и новым предпринимателям для развития предпринимательской деятельности. Ключевые слова: политика, предпринимательство, законодательство, бюрократические барьеры, финансы, налоговая политика, бизнес, кредиты.</p>	<p>I.Ayubov, S.Kurasheva Prospects for economic policy in promoting entrepreneurship development Abstract. This article highlights the importance of economic reforms of our country in the development of entrepreneurship, the simplification of processes from the organization of entrepreneurship to its formation, and the introduction of grants to small and new entrepreneurs to develop activities. Keywords: credits/loans, business, tax policy, finance, bureaucratic barriers, legislation, entrepreneurship, policy.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 11.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.